

OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI HAMDA BOLA PSIXIKASIGA TA'SIRI

Allamuratova Sadoqat Kayratovna

Sirdaryo viloyati Boyovut

tumani 51-maktab psixologи

Annotatsiya: Mazkur maqolada kelajagimiz bo'lmish yosh avlod va ularning ota va onalari o'rtasidagi muammo va nizolarning psixologik omillari va xususiyatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, psixologik holat, uslub, o'tish davri, o'quv reja

KIRISH

Kishilik jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zлari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib borishi barchamizga ayon.

Bugungi kunda oila jamiyatning eng muhim bo'lagi hisoblanadi. Oilada ota-onalar va farzand o'rtasidagi munosabat murakkab masala hisoblanadi. Chunki bizning davrimizda axborot kommunikatsiyalar orqali har bir inson o'zgalar bilan qulay muloqatga kirsha olishi mumkin. Ya'ni online tarzda bog'lanib, fikr-almashishi, muloqat qilishi, ta'lim olish imkoniyatiga ega. Buning o'z navbatida ijobiy va salbiy xususiyatlari mavjud. Internetdan oqilona foydalanish bu juda samarali va yaxshi xususiyat, ammo, undan noto'g'ri foydalanish turli hil muammo va negative natijalarga olib kelishi mumkin. Ertangi kunimiz bo'lgan yoshlarni komil inson ruhiyatida tarbiyalash jamiyatimizning asosiy maqsadlaridan biridir. Zaro, kelajak avlod komillikga erishsa davlat taraqqiy etadi. Xalqimizda farzand tarbiyasida quyidagi naql mavjud: "*Yoshlarimiz tarbiyasi qanchalik mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi.*" Chunki farzand tarbiyasi beshikdan boshlab, barkamol komil inson bo'lib shakllanishida sog'lom oila muhitining o'rni benihoya katta va salohiyati cheksizdir. Har bir farzand inson bo'lib, shaxsga aylanishining dastlabki manbai ota-onaga, oilaga, bevosita bog'liqdir. Chunki insondagi xulq-atvor, axloqodobning dastlabki normalari oilada shakllanib, maktab, mahallada, jamoatchilik o'rtasida ta'lim-tarbiya tizimi faoliyati jarayonida takomillashadi, insoniy fazilatlari shakllanib takomillashib komil insoniylik darajasigacha ko'tarilib boradi, agar aksi namoyon bo'lsa buzg'unchi, tajaovuzkor shaxsga aylanib qoladi.

Oilada ota-onalar va farzand o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy psixologik omillari batafsil o'rganish natijasida quyidagi fikrlarni bayon qilishimi mumkimki oila va ta'limning o'zaro integratsiyasi chambarchas ravishda bir-birini to'ldirib borishi lozim.

Yuqoridagi Farmonlar va qarorlar ham o'smirlarda hushyorlik hamda ogohlik fazilatlatlarini rivojlantirish, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda oila va ta'lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatini taqozo etadi.

Oila va ta'lim masalasida ilm-ma'rifatga, ijtimoiy dunyoqarashni boyitishga qaratilgan, milliy tafakkur bilan sug'orilgan asarlari bilan ma'naviy-falsafiy g'oyalarni ilgari surgan *Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Cho'lpon* kabi jadid ma'rifatparvarlik harakati namoyandalarining qarashlari ham alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlash zarur. Xususan, bunga ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning "*Ilm, axloq va harakat - yoshlar uchun ziynatdir*" - degan fikri hamda Abdurauf Fitratning oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirishga doir mulohazalari misol bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'limning rivojlanishi bevosita mamlakatning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik va axborot kabi sohalarning o'zaro bog'liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogika, psixologiya va tilshunoslikning o'rganish sohasi bo'lgan neyrolingvistik dasturlash texnologiyalaridan foydalanish orqali ham yoshlarni ota-onalari bilan bo'ladigan nizolarni psixologik jihatdan o'rganish va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan.

Ta'lim inson ijtimoiylashuvining oiladan keyingi asosiy agenti hisoblanadi. O'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini qaror toptirishda ta'lim dargohlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi turli ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy. Masalalarga aloqador muammolar ta'lim sifati, undagi kadrlar sifati hamda samarali ishlash darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog'liq:

- *Ta'lim mazmuniga.*
- *O'quv rejalar, dasturlari, dasrliklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligiga.*
- *Ta'lim metodikalarining takomillashganligiga.*
- *O'qituvchi mahoratiga.*
- *O'quvchining individual psixologik xususiyatlariga.*

Mazkur masalani o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning asosiy qismi ta'lim sifatidan yetarli darajada qoniqmasligi sohadagi muammolardan darak bermoqda. Mazkur muammolar, o'z navbatida, o'smirlarning bilimi, dunyoqarashi, jumladan, ogohlik va hushyorlik fazilatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

Ota-onalar va ustozlar orasidagi ijobiy hamkorlik farzand tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. O'qituvchilar ota-onalar bilan o'smirlarning tarbiyasi va xulq-atvori, muammolardan ko'ra ko'proq tashkiliy masalalarda suhbatlashishi namoyon bo'ldi. Statistik natijalar shuni ko'rsatadiki ota-onalar majlislarda darslardan ko'ra asosan,

qo'shimcha pul yig'imlari (87%), bolalarning o'zlashtirish darajasi (60%), qo'shimcha to'garaklar faoliyati (45%) muhokama qilinadi. Keyingi o'rirlarda o'smirlar tarbiyasidagi muammolar (25%), o'quvchilar o'rtasidagi ziddiyatlar (11%), o'tish davri muammolari (11%) va o'quvchilar salomatligi (5%) masalariga urg'u beriladi

XULOSA.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin: Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'lim mazmuniga; o'quv rejalarini, dasturlari, dasrliklar, o'quv qo'llanmalari va zamonaviy multimedia texnologiyalarining mavjudligiga; ta'lim metodikalarining takomillashganligiga; o'qituvchi mahorati va saviyasiga; o'quvchining individual psixologik xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda maktablarda ta'lim sifatidan ta'lim oluvchilarning aksariyati yetarli darajada qoniqmasligi, sohada bir qator muammolar borligidan darak bermoqda. Mazkur muammolar, o'z navbatida, o'smirlarning bilimi, dunyoqarashi, jumladan, ogohlilik va hushyorlik fazilatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Ota-onalar va ustozlar orasidagi ijobiy hamkorlik farzand tarbiyasida muhim o'rin egallagan holda bugungi kunda o'qituvchilar ota-onalar bilan o'smirlarning tarbiyasi va xulq-atvori, muammolaridan ko'ra ko'proq tashkiliy masalalarda suhbatlashishi mazkur jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Oilada otaona va farzand o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy psixologik omillarini tadqiq etish esa jamiyat uchun naqadar muhim ekanligini guvoji bo'ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho'lpox nomidagi NMIU, 2013. – 144 b.
2. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 168 б.
3. Эгамбердиева Н.М. Ижтимоий педагогика. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 220 б.
4. Эгамбердиева Н.М., Зоҳидова С.Р. Бўлажак педагогларни касбий ижтимоийлаштириш жараёнларини такомиллаштиришнинг дидактив имкониятлари. Монография. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”. – 108 б.
5. Hasanova K., Po'latova M., Qurbonova D. Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat” nashriyoti, 2019. – 168 b.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.
7. Шарафутдинова Х.Г. Ўсмир психологияси: Диагностика.
8. Психокоррекция. – Термиз, 2017. – 82 б.
9. Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). Deviant xulqatvor rivojlanishida oilaviy munosabatlarning ta'siri. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
10. Mavlonov Boxodir Biloljonovich, “O'smir yoshdagি bolalarning fazilatlarini rivojlantirishda atrof-muhit va pedagogik guruh faoliyatining ta'siri” <https://ijtimoiy.uz/2247/>